



THE ROLE OF ABU RAYKHAN BERUNI IN THE DEVELOPMENT OF KHOREZM ACADEMY OF MAMUN

Bakhadir N. Isakov

Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Uzbek State University of World Languages

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18695124>

ARTICLE INFO

Received: 12th February 2026

Accepted: 18th February 2026

Online: 19th February 2026

KEYWORDS

Abu Rayhan Beruni, Khorezm Academy of Mamun, Renaissance, science, Avicenna, Ghazna, scientific heritage.

ABSTRACT

The article explores Abu Rayhan Beruni's activities at the Khorezm Mamun Academy, focusing on his leadership, organizational skills, and significant contribution to the development of this scientific center. It analyzes Beruni's scientific collaboration with other prominent scholars (Avicenna, Ibn Iraq, al-Masihi), his career in Ghazna, and the high level of state-level attention given to Beruni's heritage in modern Uzbekistan.

РОЛЬ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ В РАЗВИТИИ ХОРЕЗМСКОЙ АКАДЕМИИ МАМУНА

Бахадир Нигматуллаевич Исаков

Кандидат исторических наук, доцент

Узбекский государственный университет мировых языков

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18695124>

ARTICLE INFO

Received: 12th February 2026

Accepted: 18th February 2026

Online: 19th February 2026

KEYWORDS

Абу Райхан Беруни, Хорезмская академия Маъмуна, Ренессанс, наука, Ибн Сино, Газна, научное наследие.

ABSTRACT

В статье исследуется деятельность Абу Райхана Беруни в Хорезмской академии Маъмуна, его организаторские способности и вклад в развитие этого научного центра. Анализируется научное сотрудничество Беруни с другими выдающимися учеными (Ибн Сино, Ибн Ирак, аль-Масихи), его деятельность в Газне, а также внимание, уделяемое наследию Беруни в современном Узбекистане.

ABU RAYHON BERUNIYNING XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI RIVOJIDAGI O'RN

Bahodir Nigmatullayevich Isakov

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18695124>

ARTICLE INFO

ABSTRACT



Received: 12th February 2026

Accepted: 18th February 2026

Online: 19th February 2026

KEYWORDS

Abu Rayhon Beruniy, Xorazm Ma'mun akademiyasi, Renessans, ilm-fan, Ibn Sino, G'azna, ilmiy meros.

Maqolada Abu Rayhon Beruniyning Xorazm Ma'mun akademiyasidagi faoliyati, uning rahbarlik va tashkilotchilik qobiliyati hamda ushbu ilm maskanining rivojlanishiga qo'shgan hissasi tadqiq etilgan. Shuningdek, akademianing boshqa yirik vakillari (Ibn Sino, Ibn Iroq, al-Masihiy) bilan ilmiy hamkorligi, olimning G'azna davridagi faoliyati va bugungi kunda Beruniy merosiga berilayotgan yuksak e'tibor tahlil qilingan.

1. Dolzarbliigi:

O'rta asrlarda o'zining noyob asarlari hamda olamshumul kashfiyotlari bilan jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan, ilk Renessans davrining yorqin namoyandasi – buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniydir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Bu davrda yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi. Xususan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamahshariy singari o'nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi”[1].

AQSHning Jon Xopkins universiteti professori, Markaziy Osiyo va Kavkaz tadqiqotlari instituti prezidenti Stiven Frederik Starr Beruniy dahosiga yuksak baho berib: “Bu O'rta Osiyo farzandi eng buyuk kashfiyotchi, antik dunyo va Yevropa tadqiqotchilari o'rtasida ko'pri bo'lgan”[2], – deb e'tirof etadi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov alloma merosi haqida shunday degan edi:

“Ulug' qomusiy alloma Abu Rayhon Beruniyning ilmiy dahosi bilan yaratilgan mislsiz kashfiyotlarga to'liq baho berishning o'zi qiyin... Beruniy dunyo ilm-fanida birinchilardan bo'lib dengizlar nazariyasi va Yerning sharsimon globusini yaratish yuzasidan o'ziga xos yangi g'oyalarni taklif etdi, Yer radiusini hisoblab chiqdi, vakuum, ya'ni bo'shliq holatini izohlab berdi, Kolumb sayohatidan 500 yil oldin Tinch va Atlantika okeanlari ortida qit'a mavjudligi haqidagi qarashni ilgari surdi, minerallar tasnifi va ularning paydo bo'lish nazariyasini ishlab chiqdi, geodeziya faniga asos soldi. Shuning uchun ham XI asr butun dunyodagi tabiiy fanlar tarixchilari tomonidan “Beruniy asri” deb atalishi bejiz emas”[3].

Abu Rayhon Beruniy (973–1048) qomusiy olim bo'lib, 150 dan ortiq asar yaratgan. Shulardan faqat 31 tasi bizgacha yetib kelgan. Uning “Mineralogiya”, “Al-osor al-boqiya anil-qurunil-xoliya” (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar), “Hindiston”, “Kitob as-saydana fit-tibb” (Dorivor o'simliklar haqida kitob), “E'tiqodlar va dinlar haqida”, “Geodeziya”, “Al-Qonun al-Ma'sudiy”, “Kitob al-jamohir fi ma'rifat al-javohir” (Qimmatbaho toshlarni bilish kitobi), “Xorazmning ajoyib kishilari”



hamda "Astronomiya kaliti" kabi asarlari mashhurdir. Olim qalamiga mansub ushbu noyob durdonalar ko'p asrlardan buyon Sharq G'arbda keng tarqalgan va yuksak qadrlanib kelmoqda.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Maqolani tayyorlashda umume'tirof etilgan tarixiy-qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, manbashunoslik tahlili, induksiya va deduksiya ilmiy metodlaridan foydalanilgan.

Beruniy fenomenini o'rganish jahon va o'zbek ilm-fanida uzoq tarixga ega bo'lib, uni shartli ravishda xorijiy va mahalliy yo'nalishlarga ajratish mumkin:

1. G'arb ilm-fani Abu Rayhon Beruniy "Sharq Renessansining eng yorqin siymosi" sifatida e'tirof etadi. Xususan, taniqli olim Stiven Frederik Starr[4] o'zining "Yo'qotilgan ma'rifat: Arab istilosidan Temur davrigacha Markaziy Osiyoning oltin davri" asarida hamda Jorj Sarton[5] "Fan tarixiga kirish" fundamental tadqiqotida Beruniy dahosiga yuksak baho berib, uning jahon sivilizatsiyasi rivojida o'rnini alohida ta'kidlaydilar.

2. O'zbekistonda Beruniy merosi Fanlar akademiyasi darajasida tizimli ravishda tadqiq etilgan. Xususan, A.Sharipov[6], U.Karimov[7] va H.Hasanov[8] kabi yetakchi olimlar allomaning falsafiy qarashlari, tabiatshunoslik hamda geografik kashfiyotlarga oid ulkan xizmatlarini fundamental jihatdan o'rgandilar. Bu boradagi eng muhim ilmiy natijalardan biri sifatida Beruniy asarlarining ko'p jildlik "Tanlangan asarlar" to'plamining o'zbek va rus tillarida nashr etilganini alohida e'tirof etish lozim.

Beruniy merosi bo'yicha dunyo miqyosida minglab maqolalar yozilgan bo'lsa-da, uning asarlaridagi hali ochilmagan matematik formulalar va astronomik hisob-kitoblar bugungi raqamli texnologiyalar davrida yangicha talqinni talab etmoqda.

3. Tadqiqot natijalari:

Abu Rayhon Beruniy nafaqat buyuk qomusiy olim, balki zamonasining yetuk mutafakkirlarini jamlab, ularning ilmiy izlanishlariga rahnamolik qilgan rahbar sifatida ham tarixda yorqin iz qoldirgan. Xususan, Abu Rayhon Beruniy yetakchiligidagi Xorazm Ma'mun akademiyasi Vatanimiz tarixidagi ilk ilm maskani hisoblanib, jahon madaniyati va fani, ayniqsa, ma'naviy-ma'rifiy fikrlar rivojiga ko'rsatgan ta'siri hamda insoniyat sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi beqiyosdir.

XI asr boshlarida Vatanimiz hududidagi davlatlar ichida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan eng rivojlanganlaridan biri Xorazmshohlar davlati edi. Xorazmshoh Ma'muniylar sulolasi davrida Xorazmda ilm ahllari to'planib, "Dor-ul-hikma val maorif" (Ma'mun akademiyasi) nomi bilan mashhur bo'lgan ilmiy markaz tashkil etildi. 1004-yildan boshlab Nishopur, Balx va Buxoroda, hatto arab xalifaligidan ham olimlar Gurganjga kela boshlagan. Ma'mun akademiyasida diniy va dunyoviy ilmlarning deyarli barcha sohalarida keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilgan. Xorazmshoh Ma'mun II Abu Rayhon Beruniy o'ziga eng yaqin maslahatchi etib tayinlashi akademianing nufuzi va ilmiy imkoniyatlari yanada kengayishiga xizmat qilgan.



Ma'mun akademiyasida faoliyat yuritgan Abu Rayhon Beruniy, Abu Sahl Iso ibn al-Masihiy, Abu Xayr al Hasan ibn Sivar, Abu Nasr Mansur ibn Iroq, Abu Said Ahmad ibn Iroq, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Ma'suriy, Al Xorojiy, Al Hamdakiy, Abu Mansur as-Saolibiy, Abu Ali ibn Miskavayh, Abduhakim Muhammad ibn Abdumalik as-Solih, Abu Abdulloh al-Buiy, Ahmad ibn Hamid an-Naysaburiy, Ahmad ibn Muhammad as-Suhayliy al-Xorazmiy, Ahmad ibn Muhammad as-Sahriy, Umar Isfaxoniy, Abulxayr Hammor, Mahmud Hamid ibn Xidr al-Xo'jandiy, Abu Abdulloh ibn Ibrohim an-Natiliy, Sharofiddin Abu Abdulloh ibn Yusuf Ayloqiy va boshqa mashhur olimlar astronomiya, matematika, tibbiyot, ruhiyat, kimyo, mantiq, falsafa, tarix, geografiya, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, musiqa singari fan sohalari bilan shug'ullanganlar.

Shuningdek, Ma'mun akademiyasi huzurida ilmu-ma'rifatga qiziqishi bo'lgan yoshlar uchun maktablar bo'lib, bu maktablarda ko'pgina olimlar shogirdlar tayyorlaganlar. Masalan, Abu Rayhon Beruniyning falakiyotni o'rganish maktabi, Abulxayr Hammorning kimyo, Abu Nasr Mansur ibn Iroqning matematika va kimyo laboratoriyalarida tadqiqotlar olib borilgan.

Ma'mun akademiyasining buyuk olimlaridan biri, amaliy bilimlar sohasida tengi yo'q alloma Abu Nasr Mansur ibn Iroq (1036-yilda vafot etgan) o'zining riyoziyot, falakiyot va trigonometriyaga doir 15 ta asaridan 12 tasini shogirdi Beruniyga bag'ishlagan. Abu Nasr Mansur ibn Iroqning Xorazmshoh Abu Ali Abbosga bag'ishlangan "Shoh almagesti"

nomli asari ham bo'lib, unga Ptolemeyning "Almagest" asari asos qilib olingan edi. Ma'mun akademiyasidagi faoliyati davomida u Abu Rayhon Beruniy, Abu Sahl Iso ibn al-Masihiy, Abulxayr Hammor va Abu Ali ibn Sino kabi olimlar bilan muloqotda bo'lgan. Uning "Kitob fi kuriyya as-sama" (Samoning shar shaklida ekani haqida kitob), "Risola filhalli shubxaten arazat fil-maqolat as-solis amora min kitob al-usul" ("Negizlar kitobining o'n uchinchi maqolasida yuz bergan shubhani hal qilish haqidagi risola) va boshqa asarlari o'rta asrlar fani rivojiga katta hissa qo'shgan. Abu Nasr Mansur ibn Iroq o'z davrida "Batlimusi soniy" (Ikkinchi Ptolemey) deb nomlangan.

Ma'mun akademiyasining yetakchi olimlaridan yana biri Sharofiddin Abu Abdulloh ibn Yusuf Ayloqiy (1008-yilda vafot etgan) dastlabki ma'lumotni Shoshning madrasalaridan birida olib, so'ng Buxoro va Urganchda bilimlarini mustahkamlagan. U ham ibn Sino kabi tibbiyotdan tashqari falsafa va tarixga qiziqqan. Ayloqiyning tibbiyotga oid "Kulliyoti tibbi Ayloqiy" (Ayloqiyning tabobat haqida risolalar to'plami) nomli asari mashhur.

Abulxayr Hammor (941–1048) mantiqshunos va faylasuf bo'lib, Bag'dod madrasalarida mudarrislik qilgan. Ma'mun ibn Muhammad Xorazmshoh uni Bag'doddan Xorazmga taklif etib, o'zining shaxsiy tabibi va nadimi maqomiga tayinlaydi. U falsafadan tashqari tabobatda ham mashhur bo'lganligi uchun "Buqroti soniy" (Ikkinchi Gippokrat) deb nomlangan. Uning "Kitob ul-hayulo" (Birlamchi modda haqida kitob), uch jildli "Kitob ul-vifoq bayna ra'y-al-falosifa van-nasoro"



(Faylasuflar va nasroniylar o'rtasidagi fikr muvofiqligi haqida kitob), "Kitob tafsiri Isog'uji muxtasaran" (Isog'uji kitobi tafsiriga qisqacha sharh), "Kitob us-sadiq vas-sadoqa" (Do'st va do'stlik haqida kitob) va boshqa asarlarining ma'naviy-mi'rifiy tafakkurda tutgan o'rni kattadir.

Ma'mun akademiyasida fan taraqqiyoti va rivojiga o'zining hissasini qo'shgan yana bir olim Abu Sahl Iso ibn al-Masihiy (1011-yilda vafot etgan) tibbiyot, biologiya, fiziologiya, pedagogika, psixologiya, falsafa va mantiq kabi sohalarida faoliyat yuritgan. Uning "Tibbiyotga doir yuz masala", "Umumiy tibbiyot kitobi", "Ruh haqida kitob", "Odamni yaratishda Alloh taolo donoliklarining sirini ochish", "Masihiyning tanlangan asarlari" va boshqa bir qator asarlari mashhur.

Yevropa va G'arb davlatlarida Avitsenna, Sharqda esa "Shayh-ur-Rais" nomi bilan mashhur bo'lgan buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino (980–1037), Buxoro qoraxoniylar tomonidan bosib olingach, ilmiy faoliyatini Ma'mun akademiyasida davom ettiradi. Bu yerda u besh jildli "Kitob al qonun fit-tib" (Tib qonunlari) asarini yaratadi. Dunyoga mashhur bu asar ko'pgina Yevropa tillariga tarjima qilinib, lotin tilining o'zida 30 martadan ko'proq qayta nashr qilingan. "Tib qonunlari"dan nafaqat Sharq, balki Yevropa shifokorlari ham hozirgacha qo'llanma sifatida foydalanib keladi. Turli manbalarda ulug' mutafakkirning falsafa, mantiq, ruhshunoslik, adabiyotshunoslik, she'riyat, musiqa, geologiya, mineralogiya, fizika, matematika, tibbiyot, falakiyot va fanning boshqa sohalariga oid 450 dan ortiq ilmiy

asarlari qayd etiladi. Biroq, bizgacha uning faqat 242 ta asari yetib kelgan. Olimning falsafaga oid "Kitob ash-shifo", "Al-ishorat va tanbihat" (Ishora va tanbihlar), "Donishnoma" (Bilim kitobi) kabi asarlari ham mavjud. Ibn Sino nafaqat qomusiy olim va mutafakkir, balki iste'dodli shoir va adib ham bo'lgan, "Qush risolasi", "Solomon va Ibsol", "Yusuf qissasi", "Uyg'oq o'g'li Tirik" kabi asarlari adabiyot sohasiga taalluqlidir.

4. Xulosalar:

Umuman olganda, Ma'mun akademiyasi olimlari nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shdilar. Afsuski, ushbu nufuzli ilmiy markazning faoliyati uzoq davom etmadi. 1017-yilda Xorazmni zabt etgan Mahmud G'aznaviy akademiyaning deyarli barcha yetakchi olimlarini (Ibn Sino va Sahl Masihiydan tashqari) G'azna shahriga olib ketdi.

Beruniy 1017-yildan umrining oxirigacha G'aznada yashab, sermahsul ijod qildi. Alloma u yerda yangi rasadxona barpo etib, Sharqning ko'plab atoqli namoyandalari bilan ilmiy hamkorlikni davom ettirdi. U nafaqat yirik tadqiqotlar o'tkazdi va shogirdlar tayyorladi, balki davlat boshqaruvi ishlarida ham faol ishtirok etdi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-avgustdagi "Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to'g'risida"gi qarori buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning jahon ilm-fani va



madaniyati rivojiga qo'shgan ulkan
hissasiga berilgan adolatli e'tirof bo'ldi.

References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – B.65.
2. Старт С.Ф. Тысяча лет озарениям Бируни. <https://kh-davron.uz/russian-rus-tilida/stiven-frederik-starr-tysyacha-let-ozareniyam-biruni.html>
3. Karimov I.A. O'zbekiston erishgan yutuq va marralar – biz tanlagan islohotlar yo'lining tasdig'idir. 22-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. – B.135–136.
4. Старт С.Ф. Утраченное Просвещение: золотой век Центральной Азии от арабского завоевания до времен Тамерлана. – Москва: Альпина нон-фикшн, 2017. – 576 с.
5. Sarton G. Introduction to the History of Science, Williams & Wilkins, 1967. – 1151 p.
6. Шарипов А. Великий мыслитель Абу Райхан Беруни. – Ташкент: Узбекистан, 1972. – 175 с.
7. Karimov U.I. Beruniyning "Kitob as-saydana fit-tibb" asarini tarjima va tadqiq qilgan. Beruniyning rus tilidagi 7 jildli Tanlangan asarlarini nashrga tayyorlash (1957–1987) da ishtirok etgan.
8. H.Hasanov dunyodagi birinchi globusni yaratgan Beruniy an'analariga sodiq qolgan holda, "Toshkent globusi"ni yaratgan.